



ERTAKTERAPIYA ZAMONAVIY TARBIYA METODI SIFATIDA

Toshmatova Xusnida Nurmuhammadovna

Yangiqo'rg'on tumani MMTB ga qarashli 47-sonli
umumiy o'rta maktabi amaliyotchi psixologi

Sulaymonova Zulfiya Pazliddinovna

Yangiqo'rg'on tumani MMTB ga qarashli 28-sonli
umumiy o'rta maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada gipperaktiv bolalarni shakllanishida ertakterapiyaning o'рни va korreksiya haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: Gipperaktiv, ertakterapiya, bola rivojlanishi, emotsional buzilish

O'zbek xalqida azal-azaldan farzand tarbiyasi muhim hisoblangan. Farzand tarbiyasiga ota-onalar mas'uliyat bilan qarashgan. Bunda ular turli xil usul va vositalardan foydalanib kelishgan. Hozirda tarbiyaning zamonaviy usullari keng tarqalgan bo'lib ulardan biri ertakterapiyadir. Ertakterapiya zamonaviy psixologiyaning zamonaviy usullaridan bo'lib, u atrof-muhit bilan o'zaro munosabatni mukammallashtirish hamda emotsional buzilishlarni to'g'rilashda foylaniladigan usuldir. Ertaklar bolaga umid beradi. Bola qanchalik yangi yil kechasi sovg'a olib keladigan Qorboboga ishonsa, u shunchalik hayotga optimist ko'z bilan qaraydi. Ertaklar orqali biz bolani tarbilaymiz, uningichki dunyosini boyitamiz, qalbini davolaymiz, hayot haqida bilib beramiz, xayolini o'stiramiz. Haqiqiy ertakning asosiy belgisi bu - uning yaxshilik bilan tugashidir. Bu bolaga psixologik himoyalanganlik tuyg'usini beradi. Ertaklarda nimaiki sodir bo'lmasin, yaxshilik bilan



yakun topadi, ertak qahramonlarining boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchli va aqlli qiladi. Boshqa tomondan, bola yomon xatti-harakatlarni amalga oshirgan qahramonlarning, albatta, qilmishlariga yarasha jazo olishlarini ko'radi. Barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan, o'zining barcha ijobiy hislatlarini namoyon qilgan qahramonlarning esa albatta mukofotlanishiga amin bo'ladi. Ana shunda hayotning asosiy qonuni yaqqol ko'rinadi: Sen hayotga qanday munosabatda bo'lsang, u ham senga shunday javob qaytaradi. Korney Ivanovich Chikovskiy shunday yozgan edi: „ Menimcha ertakning maqsadi bolada birovning g'am-tashvishi uchun qayg'urish, o'zganing shodligi uchun xursand bo'lish, begona insonning taqdirini xuddi o'ziniki kabi boshdan o'tkazish kabi insoniylikni qanday bo'lmasin tarbiyalashdan iboratdir".

1. Ertakterapiya yordamida xayol, ijodiy tasavvur rivojlanadi, ko'ngil xotirjamligiga erishiladi.
2. Bola o'zgalar xatti-harakatlarini tahlil qilishni va bu bilimlarini o'z xatti-harakatlarida qo'llashni o'rganadi.
3. Guruhdagi muloqot orqali ishtirokchilar o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatiladi.
4. Ertakterapiya kattalarga ham o'z fobiya, qo'rquvlarini yengishga yordam beradi, ulardagi agressivlik va xavotirlikni kamaytiradi.

Ertaklar orqali biz bola qalbidagi muammolarni ochishimiz va yechishimiz mumkin. Bunday ertaklar terapevtik ertaklar deb nomlanadi. Ko'pincha ertaklar kechqurun uyquga yotishdan oldin aytiladi, sababi bola bu paytda tinch bo'lib, bu aynan unga ta'sir o'tkazish uchun qulay paytdir. Shuning uchun kechqurun yaxshilik bilan tugaydigan pozitiv mazmunli ertaklar aytib berish kerak. Shuningdek, oila davrasida, kattalarning muhokamasi bilantinglangan [ertaklar muammoni hal qilishga](#), korreksiyalashga zamin yaratadi. Ertaklar bolani ulg'aytiradi. Birinchi navbatda ertakni bolaga bajonidil aytib bermoq lozim, shunda xalq ijodidan bola ko'proq narsa oladi. Ertak aytish jarayonida bola ruhan xotirjam, muhit



tinch bo'lsa, samarasi yaxshi bo'ladi. Bolaga ertak aytib berayotib unga quyidagi savollarni berishingiz mumkin:

1. Bu ertak nima haqida?
2. Ertak qahramonlari qanday sifatlarga ega? Ular kimga o'xshaydilar?
3. Nega ertak qahramonlari bunday xatti-harakatlarni amalga oshiradilar? Bu nima uchun kerak?
4. Bosh personaj qiyin vaziyatlardan qanday chiqib ketadi? Buni uning o'zi uddalaydimi yoki unga bu ishda kimdir yordam beradimi?
5. Qahramonlarning xatti-harakatlari atrofdagilarga nima beradi - quvonchmi, qayg'umi? Qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday?
6. Ertak, uning ayrim qismlari qanday tuyg'ularni uyg'otadi?

Bolalar uchun ertaklar ularning xayolini, mantiqiy va obrazli tafakkurini rivojlantirib, nutqini o'stiradi. Ertaklar xavotirlikni yo'qotib, o'ziga ishonchni orttiradi. N.L.Kryajeva qizg'anchiq, egoist bolalarga - „Baliqchi va baliq"haqidagi ertakni, qo'rqoq bolalarga - „Qo'rqoq quyonlar" haqidagi ertakni, ishonuvchanlariga „Buratinonaning sarguzashtlari"ni, qaysar bolalarga „No'xat ustidagi malika" ertagini, tinib-tinchimas [bolalarga esa](#) „Etik kiygan mushuk" ertagini aytib berishni taklif qiladi. Xuddi shunday mazmundagi ertaklar o'zimizning o'zbek xalq ertaklari orasida ham uchraydi. „Zumrad va Qimmat"ertagi bolalardagi erinchoqlik va dangasalikka, „Ur to'qmoq" ertagi yolg'onchilikka, „Susambil" ertagi noahillikka qarshi kurashadi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Barcha ertaklar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, bola qalbiga ezgulik urug'ini sochadi. Ota- onalarga maslahatlar:

1. Ota-onalar farzandiga ertakni o'qib emas, balki aytib bersalar maqsadga muvofiqdir. Chunki bu ota-onaga dilbandining ertakga qanday munosabat bildirganligini



kuzatish imkonini beradi. Qolaversa, ota-ona farzandi bilan birgalikda ertaklar olamiga sayr qiladi, bu esa bolaning unga yolg'iz sayohatidan ko'ra avzaldir.

2. Bolalar o'zgaralar tomonidan tasvirlangan obrazlarni yaxshiroq qabul qilish qobiliyatiga ega. Shuning uchun farzandingizga ertak aytib berish chog'ida unda yozilgan barcha manzaralarni tasvirlab berishga harakat qiling.

3. Bolangizga ertakni o'zi tanlash imkonini bering. Agar u o'n marta „Qizil qalpoqcha“ haqida eshitishni xohlasa, demak bu bekorga emas. Bu ertak uning ongi shakllanishiga nimadir bermoqda, unda qandaydir jarayon sodir bo'lmoqda.

4. Muhim bo'lgan yana bir qoida - bolaga ertaning chuqur ma'nosini tushuntirib bermaslik kerak. Aks holda ertak o'ladi - o'z ahamiyatini yo'qotadi va undan hech qanday naf bo'lmaydi.

5. Xalq ertaklariga iloji boricha tuzatish va o'zgartirishlar kiritmaslik kerak, aynisa real hayot bilan bog'liq bo'lgan. Bu o'zgartirishlar bolaning ertaklar olamini qabul qilishida qiyinchilik tug'diradi.

Ertakterapiyaning maqsadi va vazifasi bolalardagi agressivlik kayfiyatini yo'qotish, o'z-o'zini emotsional boshqarish va o'zgaralar bilan ijobiy munosabatni rivojlantirishdir. Buning uchun ertakterapiya soddaligi va bolalarning ertakka bo'lgan qiziqishi tufayli ular uchun tushunarli bo'lgan ertak uslubi va bolalar bilan ishlash yo'llaridan foydalaniladi. Har bir bola bir yoki boshqa ertakni o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Shuning uchun bir ertak unda kata taa'surot qoldiradi

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bola xatti-harakatidagi emotsional buzilishlarni, albatta o'yinlar, o'yinchoqlar bolaning tasviriy faoliyati, musiqa, teatr va umuman aytganda san'at yordamida ham to'g'rilasa bo'ladi. Lekin, bolalar uchun eng



tushunarli va sevimli usul bu - ertakdir. To‘g‘ri tanlangan ertak yordamida boladagi ko‘plab muammolar - qo‘rquv, injiqlik kabilarni yo‘qotish, bolada qat’iyat va irodani shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dyui Dj. “Psixologiya i pedagogika myshleniya”. M., Progress, 1998
2. Karnegi D. “Kak zavoevat druzey i okazivat na nix vliyanie”. M., Progress, 1990
3. Karimova V.M. Ota-ona maktabi – baxt kaliti.- T., 2002
4. Oila psixologiyasi. Prof. /. SHoumarov tahr. ostida.- T.: SHarq, 2001
5. M Yodgorova “Gipperaktiv bolalar psixokorreksiyasi” tavsiya 2021